

**O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2025 yil 3-chorak
yakunlari bo‘yicha korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish
natijalari haqidagi oraliq
HISOBOT**

Milliy qonunchilik talablari va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining ichki tartib-qoidalariga amal qilgan holda 2024 yil dekabr oyidan boshlab Vazirlik markaziy apparati va uning bo‘ysunuvidagi tashkilotlarida korrupsiyaviy holatlar haqida ma‘lumot berish uchun jismoniy va yuridik shaxslar uchun alohida aloqa kanallari yaratildi. Mazkur kanallar haqidagi ma‘lumotlar Tashqi ishlar vazirligi va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlarning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallar orqali tarqatildi.

2025 yil 3-chorak yakunlari bo‘yicha, ushbu aloqa kanallari Vazirlik mas‘ul bo‘linmasiga markaziy apparatda yoki bo‘ysunuvdagi tashkilotlarda mansabdor shaxs vazifalarini bajarib kelayotgan diplomatik xizmat xodimlari ishtirokidagi korrupsiyaviy holatlar yoki unga oid huquqiy qonunbuzarliklar to‘g‘risida murojaatlar kelib tushmadi.

Vazirlik tomonidan mazkur yonalishdagi maqsadli choralar ko‘rilishi davom etadi. Doimiy ravishda Vazirlik mas‘ul bo‘linmalari tomonidan tashkilot tizimida hozirgi kunda mehnat qilayotgan barcha xodimlar va ishga yangi qabul qilinayotgan mutaxassislarga korrupsiyaviy holatlarga qarshi kurashishning ustuvor vazifalari va bu borada davlat xizmatchilarining zimmasiga yuklatilayotgan qo‘shimcha majburiyatlar, ulardan kelib chiqadigan javobgarlik turlari to‘g‘risida tushuntirish va maslahatlar berib borish ishlari yolg‘a qo‘yildi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari milliy qonunchilik talablariga muvofiq ravishda ko‘rib chiqish va javob qaytarish, shuningdek ish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni belgilangan vakolato doirasida samarali hal qilish yuzasidan zarur shart-sharoitlarni yaratishga yetarli darajada e‘tibor qaratiladi.

Shuningdek, mazkur jarayonga jalb etilgan mas‘ul bo‘linmalar xodimlarini professional ko‘nikmalarini va amaliy tajribasini oshirishga, ishda davlat xizmatchisiga xos va mos ravishda xulq-atvor ko‘rsatishga, Vazirlik tomonidan ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirishga tegishli amaliy yordam berilishi, shu jumladan ish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish amaliyotini va raqamlashtirishni qo‘llab-quvvatlash davom ettiriladi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Tashqi ishlar vazirligining
Komplaens nazorati xizmati**

2025 yil 2 oktyabr